

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.Sh.Nomozov	
Internet-makon mohiyati, genezisi va zamonaviy tarkibi.....	328
U.R.Sobirova	
Huquq falsafasining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati	332
A.Ch.Abdiyev, B.I.Xolyorova	
Ziyorat turizmi sohasida O'zbekistonning o'rni va imkoniyatlari	335
I.Rizayev	
Sinergetika: ijtimoiy tizimni tadqiq qilishdagi muammo va imkoniyatlar.....	339
R Mardonov	
Sharq va g'arb ta'lim falsafalarining o'zaro ta'siriga asoslangan madaniyatlararo muloqot	346
N.X.Xakimov B.A.Nabiyev	
O'rta osiyoda hozirgi eklovliy muammolar va transfor suvdan foydalanish muammolari.....	350
X.Samatov	
Tasavvufda tariqat a'zolarining jamoadan alohidalanishi (ijtimoiy falsafiy tahlil)	358
H.Muhamadiyev	
Virtuallik yangi falsafiy kategoriya sifatida	365
D.B.Sharipov	
Tinchlikni ta'minlashning innovasion omillari	370
X.R.Xolidaxon	
Xoja Ahror Valiy qarashlarida ilohiy muhabbat tushunchasining falsafiy tahlili.....	374

SIYOSAT

A.Z.Ismayilov	
Huquqiy ong tizimida huquqiy davlatchilik g'oyalari	378
J.Sultonov	
Markaziy Osiyo chegara muammolari yechimini konstruktivizm nazariyasi yordamida tahlil qilish	384

TARIX

B.Usmonov, D.A.Madalimov	
Temurning hayoti va shaxsiy fazilatlari Uilyam Devi hamda Jozef Uayt talqinida	392
M.Sh.Muzaffarjon	
O'zbekistonda turizmning vujudga kelishi tarixi (XX asrning 20-30-yillari)	397
B.M.Abdullayev	
Farg'ona vodiysi qadim madaniyatlarining so'ngi bronza va ilk temir davrlari shaharsozligining shakllanishi hamda rivojlanishidagi o'rni va roli	405
N.V.Karimova	
Farg'ona vodiysi antik davr shahar topografiyasini o'rganilishiga oid.....	416
D.M.Turdiyeva	
Dinshunoslik fanining yuzaga kelishi va rivojlanishi.....	421
A.A.Aloxunov	
Arxeologik tadqiqot metodiga doir	425
A.A.Yo'ldashev	
XX asrning 20-yillarida ozarbayjonda ta'lim olgan turkistonlik yoshlar tarixidan.....	431
F.E.Atajanova	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar	436
P.P.Norbo'tayev	
Epos va din	440
Z.B.Rahmonqulova, S.A.Hamrayev	
Ernazar Maqsud o'g'li elchiligiga oid tadqiqotlar tahlili.....	446
J.Sh.Museyibzoda	
O'zbekiston tashqi siyosatidagi o'zgarishlar: xalqaro tashkilotlar orqali obro' va hamkorlikni mustahkamlashda faol ishtirok etish.....	453
M.R.Umirzakova	
Turkiston ASSRda soliqqa tortish masalalari.....	460

FARG'ONA VODIYSI QADIM MADANIYATLARINING SO'NGGI BRONZA VA ILK TEMIR DAVRLARI SHAHARSOZLIGINING SHAKLLANISHI HAMDA RIVOJLANISHIDAGI O'RNI VA ROLI

МЕСТО И РОЛЬ ДРЕВНИХ КУЛЬТУР В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА ФЕРГАНЫ В ПЕРИОДЫ БРОНЗЫ И РАННЕГО ЖЕЛЕЗА

PLACE AND ROLE OF ANCIENT CULTURES IN FORMATION AND DEVELOPMENT URBAN PLANNING OF FERGANA DURING BRONZE AND EARLY IRON AGES

Abdullayev Baxtiyor Manopovich

1Abdullayev Baxtiyor Manopovich

– Samarqand arxeologiya instituti, katta ilmiy xodim, tarix fanlari nomzodi.

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot Farg'onaning bronza va ilk temir davri urbanizatsiya jarayonlarini yoritib beruvchi keng ko'lamli ilmiy adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilish asosida olib borilgan. Har bir davr uchun shahar madaniyati rivojlanishining xarakterli xususiyatlari alohida keltirilgan. O'rganilayotgan davr shaharlari va aholi punktlarini rejalashtirishning qadimgi me'morlari tomonidan o'ziga xos yechim muammosi ochib berilgan.

Аннотация

Данное исследование направлено на основании критического анализа широкого круга научной литературы, освещены урбанизационные процессы Ферганы эпохи бронзы и раннего железа. Представлены характерные черты развития городской культуры для каждого периода в отдельности. Раскрыта проблема своеобразного решения древними зодчими планирования городов и поселений изучаемого периода.

Abstract

This study is aimed at the basis of a critical analysis of a wide range of scientific literature highlighting the urbanization processes of Ferghana of the Bronze Age and Early Iron Age. The characteristic features of the development of urban culture for each period are presented separately. The problem of a peculiar solution by ancient architects of planning cities and settlements of the studied period is revealed.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, so'nggi bronza va ilk temir davri, manzilgohlar va shaharlar.

Ключевые слова: Фергана, эпоха поздней бронзы и раннего железного века, поселения и города.

Key words: Fergana, Late Bronze Age and Early Iron Age, settlements and cities.

KIRISH. MARKAZIY OSIYODA TEMIR DAVRINI O'RGANILISHI BO'YICHA MA'LUMOT

Taqdim etilayotgan ilmiy tadqiqot Farg'ona vodiysi tarixining eng muammoli dolzarb masalalaridan bo'lmish so'nggi bronza va ilk temir davrlari shaharsozligida ko'chmanchi va ziroatkor madaniyatlarning o'рни hamda rolini aniqlashga bag'ishlangan. Bronza davri asosiy xomashyosi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda keng ko'lamda ko'rib chiqilgan va shu tufayli qisman ilk temir davri shakllanishiga doir ayrim masalalarni tahlil qilishimiz lozim. Zero, bu davrda temirning kashf etilishi hamda uning ishlab chiqarilishi turli tarixiy-madaniy o'lkalarda turli xronologiyani ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo va, xususan, Farg'ona vodiysi xududlarida ilk temir davri xronologiyasi bo'yicha tadqiqotchilar o'tgan asrning boshlaridan [40: 157] 80-yillarigacha oldingi soha mutaxassislari o'z tadqiqot xulosalarini dunyoni ilk tamaddun o'choqlaridagiga nisbatan mahalliy temir buyumlarini qiyosiy solishtirma tahlillari asosida taqdim etib kelishgan [49: 155; 14: 125, 128; 16: 83; 50: 149; 32: 106; 30: 73, 80, 81; 52: 70, 74, 81, 97; 53: 155; 24: 52; 44: 37; 51: 30; 45: 110; 58: 37; 12: 17, 67]. Keltirilgan tadqiqot xulosalari 1980-yillar boshida tanqidiy o'rganilib umumlashtirilgach, tahlil natijalari alohida maqolada chop etilgan [43: 229-234]. Bu tadqiqot natijasiga ko'ra, Markaziy Osiyoda temirning paydo bo'lishi mil.avv. X-VIII asrlar, uning keng tarqalishi esa, mil.avv. VII-IV asrlar bilan belgilangan bo'lsa, mil.avv. III-II asrlarda aksariyat hunarmandchilik buyumlarini tayyorlashda temir bronza metalini siqib chiqardi. Mutaxassisning ishlanmalariga ko'ra, Farg'ona vodiysida temir buyumlarning keng tarqalishi xronologik jihatidan mil.avv. VIII-IV asrlarni o'z ichiga qamraydi [43: 233-234]. Bu holat esa taqdim etilyotgan

mavzuimizda ilk temir shaharsozligi, qisman, so'ngi bronza davriga oid Chust madaniyatining ohirgi ikki asrlik davridan boshlanib, antik davrining boshlarigacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Farg'ona vodiysi qadim madaniyatlarida so'nggi bronza davridan o'rta asrlargacha shakllanib rivoj topgan shaharsozlikka oid me'moriy yechimlarning tadrijiy taraqqiyotini o'zida saqlagan bir qator yodgorliklar o'tgan asrning 30-yillaridan ohirgi paytgacha ko'plab olimlarni dala tadqiqotlari doirasidan o'rin egallagan. Garchi, bu tadqiqotlarning aksariyatida urbanizatsion jarayon muammolari odatda ikkinchi darajali sifatida o'rganilgan bo'lsada, bu yo'nalish bo'yicha ham ko'plab materiallar to'plangan. Ularning tanqidiy o'rganilishi esa Farg'ona vodiysi shaharsozligi bu davrlar mobaynida ma'lum tadrijiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilganlarga ko'ra, mintaqada qadimdan shakllanib kelgan urbanizatsion jarayonlar umumlashtirilib, shaharsozlik madaniyatini vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari omillarining ilmiy asoslari belgilanishi hamda uning vodiy tamadduni rivojidagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalariga ta'siri oydinlashtirilishi lozim. Bunda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan: shaharsozlikning ilk shakllanish xususiyatlari; ko'chmanchilar migratsiyasi hamda dehqonchilik xo'jaligini rivoji va irrigatsiya inshootlarining urbanizatsion jarayonlariga ta'siri; har bir tarixiy davr uchun alohida xususiyatli bo'lmish yodgorliklarning o'z davridagi voaha yoki ma'lum savdo yo'llari tizimida joylashgan o'rni; vodiy shaharsozligining tadrijiy taraqqiyotini qo'shni mintaqalar bilan taqqoslash, hamda o'ziga xoslik va umumiylikni aniqlash shular jumlasiga kiradi.

Ko'rsatilgan muammoni yoritishdan oldin, garchi alohida maqolalarimizda va 2021-yilgi ilmiy tadqiqotimizda bu borada ancha keng ko'lamli ilmiy adabiyotlar asosida yoritib o'tgan bo'lsakda [9: 5-9], Farg'ona vodiysi qadim madaniyatlari ketma ketligi kontsepsiyasidagi uzoq yillardan beri olib borilayotgan mulohaza, mushohada va yangi tadqiqot natijalari hamda ularning yechimida bizning munosabatimiz borasida o'z tahliliy xulosalarimizni keltirib o'tishni o'rinli deb bildik.

Mintaqada dastlabki tom manodagi arxeologik dala tadqiqotlarining olib borilishidan hozirgi vaqtgacha farg'onashunos olimlarining (B.A.Latinin, A.N.Bernshtam, B.A.Litvinskiy, Yu.A.Zadneprovskiy, N.G.Gorbunova, Ye.D.Saltovskaya, V.I.Kozenkova, A.A.Anarboyev, B.Abdulgaziyeva, B.X.Matboboyev, G.P.Ivanov, S.S.Qudratov) ⁶⁷ aksariyati vodiy qadim madaniyatlar ketma ketligi jadvalini tuzayotganida ilk ikkita⁶⁸ – Chust va Eylaton madaniyatlarini o'zgarishsiz keltirib, ulardan keyin keladigan madaniyatlarni turlicha berishgan. XX asrning yosh tadqiqotchilari esa u yoki bu klassik tadqiqotchi kontsepsiyasiga o'z tadqiqoti doirasida qo'shimcha kiritish bilan cheklangan. Natijada, Farg'ona vodiysi qadim madaniyatlari kontsepsiyasi aniq yechimga ega bo'lmay kelmoqda. Eng avvalo, keltirilgan kontsepsiyalarda ko'chmanchi va ziroatkor madaniyatlar davri, maqomi va ularning mintaqqa qadim aholisining tadrijiy taraqqiyotiga ta'siri ilmiy asoslangan mezonga kiritilmay qolmoqda. Bu esa, o'z o'rnida, yodgorliklarni nisbiy va absolyut davrlashtirish masalalarini murakkablashtirmoqda.

Bizning tadqiqot natijalarimizga ko'ra, dastlab mintaqning ilk ziroatkor (Chust) ⁶⁹ va ko'chmanchi (Qayroqqum) madaniyatlari kabi ilk temir davrida ham parallel ravishda faoliyat ko'rsatgan ziroatkor va ko'chmanchi madaniyatlar aniqlanishi lozim. Zero, Chust madaniyatidan so'ng, uning vorisi sifatida B.A.Latinin taklifi hamda N.G.Gorbunova va Yu.A.Zadneprovskiylarning tan olishiga ko'ra, Eylaton madaniyati ziroatkor sifatida e'tirof qilinadi. Biroq, bu kontseptual g'oya, bizning fikrimizcha ⁷⁰, ilmiy asosi ancha zaif. Gap shundaki, N.G.Gorbunova va Yu.A.Zadneprovskiylar Chust va Eylaton madaniyatlariga oid nafaqat shaharsozlik an'anasida, balki ularning sopol komplekslarida ham bir qator mezonlar (tayyorlanishi, hajmi, naqshlanishi hamda idish foniga berilgan rangi)ga ko'ra bir biridan keskin farq qilishini takidlab o'tishgan.

Shunday bo'lsada, ular B.A.Latinin g'oyasini tasdiqlaydigan moddiy manba topish uchun o'tgan asrning 60-70-yillari mintaqaning sharqi, g'arbi va janubi-g'arbida tadqiqotlar olib borgan. Biroq bu urinishlar natijasida, Eylaton madaniyatiga oid faqat qabr qo'rg'onlar mavjudligi hamda

⁶⁷ Klassik farg'onashunoslar kontsepsiyalari XX asr ohirida maxsus jadvalga kiritilgan (21: 168, ris. 1) bo'lsa, oradan 20 yil o'tmay, bu jadval 1970-1980 yillari o'sha davr yosh tadqiqotchilarning ishlanmalari bilan to'ldirilgan (41: 69-73).

⁶⁸ Bundan B. A. Latinin va A. N. Bernshtam ajralib turadi, zero birinchisida madaniyatlar ketma ketligi shartli rim hamda arab raqamlari bilan, ikkinchisida esa bronza va saklar davri berilgan.

⁶⁹ Bu borada mintaqada ilk va rivojlangan bronza davriga oid asori-atiqalar topilganligi ma'lum, biroq ular bilan bog'liq manzilgoh topilmagan. Shu tufayli, hozircha vodiy qadimiyati uchun Chust madaniyati birlamchi xisoblanadi.

⁷⁰ Bunday xulosa bizning ohirgi yetti yillik tadqiqot natijalarimiz xosilasi bo'lib, u 2021-yili xalqaro konferentsiyadagi maqolamiz va yillik xisobotimizda asoslangan (9: 3-11; 10: 114-130).

TARIX

deyarli manzilgoh yoki Eylatondan boshqa shahar topilmaganligini takidlaganlar. Bu hol esa Eylaton madaniyati ziroatkordan ko'ra ko'chmanchilar sarasiga kirishini ko'rsatadi. Vaholanki, bu madaniyat bo'yicha dastlabki tadqiqodlardan boshlab Eylaton shahri ko'chmanchi sak qabilalarining markaziy shahri bo'lishi bilan birga, bu madaniyatda eng ko'p uchragan sopol komplekslari ko'chmanchi Qayroqqum madaniyati sopol idishlariga xosligini ilmiy faktlar bilan keltirgan [29: 92, 94; 31: 53, 54].

Bu borada shuni ta'kidlashimiz mumkinki, B.A.Litvinskiy qadim madaniyatlar ketma ketligi kontseptsiyasiga doir jadvalda ilk temir davrida Eylatondan boshqa, u bilan parallel ravishda mavjud nomalum madaniyat bo'lganligini ko'rsatib o'tadi [21: 168, ris. 1; 41: 71, jadval a]. Bizning fikrimizcha, bu madaniyat chustliklarning vorisi ziroatkor Sho'raboshot madaniyati bo'lish ehtimoli katta. Biroq, shuni ham takidlash lozimki, Sho'raboshot madaniyatiga oid yodgorliklarni keng ko'lamda tadqiq etgan olimlarning xulosasiga ko'ra bu madaniyat mil.avv. V – mil. birinchi asrlar [56: 137-138] yoki mil.avv. V-II asrlar [17: 16-17, 19] bilan belgilangan.

Sho'raboshot madaniyati sohiblaridan bizgacha yetib kelgan aksariyat moddiy madaniyat (shaharsozlik, hunarmanchilik, xo'jalik qurollari va buyumlari) namunalari chustliklar moddiy madaniyatiga xos yoki turli ijtimoiy-siyosiy ta'sir ostida mukammallashtirilgan. Biroq oldingi tadqiqotchilar tomonidan Sho'raboshot madaniyati ikki asr kech bo'lgan vaqt bilan davrlashtirilgan!? Bu nomutanosiblik, bizning xulosalarimizga [9: 5-9] ko'ra, bevosita Eylaton madaniyatining ziroatkor deb takidlanishidan kelib chiqmoqda. Aynan shu sababli, Yu. A. Zadneprovskiy Sho'raboshot madaniyatini Eylatondan keyin qo'ygan, P. P. Gavryushenko esa o'z davriy xulosasini shakllantirishda Sho'raboshot yodgorligida olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslab shakllantirgan. Shu tufayli, vodiy qadimiyatining galdagi dolzarb tadqiqotlaridan biri – Sho'raboshot madaniyatiga oid shu vaqtgacha topilgan asori-atiqalarni qayta ko'rib chiqish hamda yangi arxeologik qazishmalar jarayonida aniq fanlar mutaxassislari bilan hamkorlikda keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilishi talab etiladi.

Bizning tadqiqot natijalarimizga ko'ra, ilk temir davri bronza davri mintaqamizda shakllanayotgan urbanizatsion elementlarning antik davrining keng ko'lamli shaharsozligiga olib borgan xronologik xalqa deb keltirish mumkin. Shu sababli, so'nggi bronza davrida ko'chmanchi va o'troq madaniyatlarda urbanizatsion jarayon qay tarzda kechganligi va ular keying avlodga shaharsozlikning qanday "ta'mal toshini" qo'yib ketganliklarini ko'rib chiqishimiz lozim.

I. SO'NGI BRONZA DAVRI (MIL.AVV. XII-VII ASRLAR) DA URBANIZATSION JARAYONLAR

Bu davrda vodiy mintaqasida urbanizatsion jarayonlar bir biridan keskin farq qilgan holda ko'chmanchi (Qayroqqum) va ziroatkor (Chust) madaniyatlarida ham kuzatilgan. Binobarin, birinchisida bu jarayon faqat uncha muraakkab bo'lmagan manzilgohlar ko'rinishida bo'lsa, ikkinchisida – o'ziga xos infrastrukturaga ega shaharlar hamda aksariyat holda o'rta va kichik manzilgohlar tarzida namoyon bo'lgan.

I. 1. KO'CHMANCHI QAYROQQUM MADANIYATIGA OID URBANIZATSION JARAYONLAR

Bu madaniyat manzilgohlari o'tgan asrning 50-yillari B. A. Litvinskiy tomonida atroflicha o'rganilgan [29: 142-156]. O'sha davr aerofotosuratlar tahliliga ko'ra, Qayroqqum cho'lining sharqidan g'arbga qadar zamonaviy Sirdaryoni 3-7 km shimolidan uning eski o'zani aniqlangan va aynan shu o'zanning bo'ylarida ushbu ko'chmanchi madaniyatga tegishli manzilgohlar mavjud bo'lgan. Biroq, muallifning takidlashiga ko'ra, cho'l mintaqasida keng tarqalgan taqirlarda bunyod etilgan qadimiy manzilgohlarining o'rnida ularni, madaniy qatlamning "jonli etidan" mahrum bo'lgan "skeletlari"gina saqlangan xolos [29: 142-156]. Shunday bo'lsada, ulkan ahamiyatga ega o'nlab qadimiy manzilgohlar bir necha yuz kvadrat kilometrda tarqalib joylashgan. Vaholanki, manzilgohlarning aksariyat qismini kichik (300-5000 m²) va o'rtacha (1000-30000 m²) maydonga egalari tashkil qilsa, atigi to'rtasi "gigant" (425000-255000 m²) manzilgohlardan iborat bo'lgan. Bu hol shuni takidlaydiki, Qayroqqum manzilgohlarining ko'pchiligida maydoni o'zgarib turgan va bu cho'l hududlaridagi turar-joylari uchun odatiy jarayon tusiga kirgan [29: 149-150].

Manzilgohlarning alohida nisbatan yaxshi saqlangan elementlariga o'nlab metrda cho'zilgan zanjir ko'rinishidagi loy mahsulotlari (xom g'isht va loy qorishmasi) yoki toshlardan yasalgan

o'choqlar majmuasini kiritish mumkin. Shubhasiz, Qayroqqum o'choqlar zanjiri ma'lum manzilgohlar ichkarisida joylashgan bo'lgan.

B. A. Litvinskiy fikricha, uy-joylar qurilishi atigi somonli loy suvoq parchalarini topilishi tufayli, ularning devorlari tabiat in'om etgan narsalar (tosh, terak, qamish va h.) dan yengil konstuktiviyalar – tosh asos ustiga ma'lum oraliqda terak novdalari terilib, qamish bilan o'zaro mahkalab to'qilgan hamda ikki tafidan somonli loy bilan suvab chiqilgan. Ushbu uylarning tom qoplama vazifalarini ham terak novdalari va qamishlar o'tagan bo'lishi kerak. Darhaqiqat, tez-tez ko'chib yurishga moslashgan madaniyat sohiblari uchun bu kabi "engil devorlar" ancha qulayliklar yaratgan bo'lishi kerak. B. A. Litvinskiy takidlashicha, novda ustunchalarni o'zaro bog'lab turuvchi qamish to'qimalari asosida bunyod etilgan "engil devorli" uylardan foydalanish Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkiston xalqlari uchun qadimdan XX asrlargacha qo'llanilib kelingan [29: 153-154; 15: 34-47, fig. 1-7; p. 56-63, fig. 1-3, 8-16]. Vaholanki, bu kabi mudofaa inshootlarini qurish uslubi shu davrga oid Sharqiy Turkiston (hozirgi Xitoyning Sinzyan viloyati) xududidagi Jumbuloqqum yodgorligida bizning tadqiqotlar natijasida aniqlangan [5: 46-47, ris. 2].

Shunday qilib, Qayroqqum madaniyatiga oid manzilgohlarida topilgan me'moriy qoldiqlar ularni tark etgan aholi uy-joy qurish usullari bilan tanish bo'lganligini aniq ko'rsatmoqda. Qurilish jarayonida hunarmandlar barqaror turdagi konstruksiyalarni, bir qator maqsadga muvofiq qurilish texnikasini hamda devor va shift konstruksiyalarini ishlab chiqqandilar. Bularning barchasi qurilish texnikasini rivojlantirishda sezilarli muvaffaqiyatlardan hamda uy-joy qurilishi sohasida qurish ko'nikmalarini rivojlantirish darajasidan dalolat beradi. Shunday bo'lsada, yuqorida keltirilgan fikrlar asosan Qayroqqum madaniyatiga tegishli hunarmand (birinchi o'rinda, metalsoz yoki temirchi) lar ustaxonalari va turar joylari bo'yicha ma'lumot beradi, biroq aniqlangan bironta manzilgohni monolit paxsa yoki xom g'ishtdan qad ko'targan mudofaa devorlariga oid izlari topilmagan. Demak, vodiy ko'chmanchilarining mil.avv. XII-VII asrlarga doir me'morchiligida faqat urbanizatsiya elementlari mavjud bo'lgan xolos, lekin tom ma'nodagi shaharsozlik shakllanmagan.

I. 2. ZIROATKOR CHUST MADANIYATIGA OID URBANIZATSION JARAYONLAR

Chust madaniyati uning asosiy tadqiqotchisi tomonidan mil.avv. XII-VII asrlar (so'ngi bronza davri) bilan belgilanadi, biroq u bu davrni qadimiylashishi mumkin deb aytgan [56: 70]. Hozirgi vaqtgacha 80 dan ortiq bu madaniyatga tegishli yodgorliklar aniqlangan, biroq, garchi mintaqada boshqa yirik (Ashqaltepa – 13 ga) va kichik arxeologik ob'ektlar bo'lsada, faqatgina ikkitasida ya'ni Dalvarzin (25 ga) va Chust (4 ga) yodgorliklarida keng qamrovli arxeologik tadqiqotlar olib borilgan.

Chust madaniyatining markaziy shahri Dalvarzinda qo'lga kiritilgan topilmalarni o'rganish "Dalvarzin shahri uning barcha faol davrlarida muntazzam kengayib va ta'mirlanib turgani" xaqidagi farazlarimizni tasdiqladi [1: 131-140]. Odatda Chust manzilgohlari tabiiy mudofaalangan (bir tomondan suv havzasi boshqa tarafdin botqoqliklar bilan o'ralib, faqatgina bir tomondan kirish imkonini beradigan) daryo yoki soy deltalarida joylashardi va asosiy mudofaa inshootlari shu yo'l ustida turishi mantiqan to'g'ri edi. Dalvarzindagi dastlabki manzilgohning o'troq aholisi Qoradaryoni qadimgi deltasida joylashgan va bu an'ana boshqa yodgorliklarda ham qo'llanilgan [6: 14].

Birinchi bosqichda 2 gektardan kattaroq maydon atrofi o'zaro bog'liq uylar bilan aylana shaklida o'rab [1: 132], tashqi tazyiqdan muhofazalangan aholi dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan hayot kechirganlar. Keyinchalik, bu qo'rg'on uylarining tashqi devorlari yo'nalishida mudofaa devorlari bilan o'ralib, bo'lg'usi shahar arkiga (D-III) aylantirilgan va u shaharning shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan. Arkning darvozasi uning janubi-sharqiy qismida, ya'ni shaharni "asosiy yashash" xududi (DI) bilan bog'langan. Arkning darvozasidan uning markaziy maydoniga qadar yer sathiga uch qator shag'al to'shalgan [57: 401], biroq unda diniy markaz vazifasini o'tashi mumkin bo'lgan mahobatli bino qoldiqlari topilmagan.

O'troq hayot tarzi va u bilan bog'liq xo'jalik yuritish ravnag'i aholining demografik o'sishiga, hamda dastlabki qo'rg'on atrofida (asosan janub va janubi-sharqda) yangi qo'rg'onlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Natijada, qo'shimcha 18 gektar maydonda uy-joylar qurilgan. Qabilalraro urush xavfi yangi qo'rg'onlarni o'z ichiga olgan mudofaa devorlari qad ko'tarilishiga olib keldi. Demak, ikkinchi bosqichda shaharning "asosiy yashash" qismidagi mudofaa devori arkdan tashqaridagi yangi qo'rg'on uylarining tashqi devorlari yo'nalishida o'ralgan va bu holat o'zining arxeologik tasdig'ini topgan [35: 66].

TARIX

Uzoq muddat shaharning “hayvonlar saqlash” qismi (D-II) botqoqliklar bilan himoyalangan, biroq ma’lum davr ichida, taxminimizcha, xo’jalik yuritish faoliyati ta’siri va Qoradaryoning shimol tomonga tabiiy siljishi sababli botqoqliklar asta-sekin quriy boshlagan, hamda ko’chmanchi qabilalar bosqini havfi ortganligi tufayli uchinchi bosqichda bu yer ham asosan tuproq uyimi (lumboz) va qisman xom g’ishtli mudofaa devorlari bilan o’ralgan.

Dastlabki tashqi mudofaa devorlari shaharning shimoli-g’arbiy qismida joylashgan “arkda” fundamentsiz qad ko’tarilgan. Bu devor uch bor qayta ta’mirlanib qurilgan, vaholangki bu ko’rsatkich “uy hayvonlari joylashgan” qismning shimoliy devori uchun – bir bosqich va “ark” qismining sharqiy devori uchun – ikki bosqichga ega bo’lgan;

“Asosiy aholi istiqimot qilgan” – “shahriston” qismining sharqiy devorining qad ko’tarilishida turli qurilish materiallari (paxsa, xom g’isht va guvala) va qurish uslublar (faqat paxsa yoki g’isht bilan, ularning kombinatsiyasi, lumboz, juft g’isht devorlar oralig’ini tuproq va qurilish materiallarining siniqlari bilan to’ldirish)dan foydalanilgan;

“Uy xayvonlari joylashgan” qismining atrofi “ark” va “asosiy aholi istiqimot qilgan” qismlaridan ko’ra kechroq mudofaa devorlari bilan o’ralgan. Shaharning bu qismi mudofaa devorlari lumboz tuproq asosida qurilishining sababi, unda uy hayvonlari saqlanganligi va dastlab atrofi botqoqliklardan iborat bo’lganligidadir.

Shaharning faqatgina “ark” va “asosiy aholi istiqimot qilgan” qismlari uchun umumiy shimoliy mudofaa devori blokli paxsadan qurilgan va bir necha qurilish gorizontlari davrida mavjud bo’lgan. Tadqiqotlarimizga ko’ra, har safar umumiy shimoliy mudofaa devori yangilanish arafasida eski inshootdagi xonalar tuproq, qurilish chiqindilari (singan paxsa va xom g’isht bo’laklari) va loy bilan to’ldirilib, o’ziga xos maxsus platformani vujudga kelgach, uning ustiga yangi inshoot qad ko’tarilgan. Shu tufayli, antik va o’rta asr shahar va qo’rg’onlarining muhim qismini tashkil qilgan mahobatli binolarning asosi bo’lmish tagkursi (platforma-stilobat) ilk bor Farg’onada Chust madaniyati davrida paydo bo’lgan.

Bizdan oldingi tadqiqotchilarning [56: 11-49; 47: 227-232] natijalarini tanqidiy o’rganish asosida quyidagilarni xulosa qilish mumkin. Chust madaniyatning rivojlangan davrida shaharsozlikning deyarli asosiy unsurlari barpo qilingan. Qurilishda paxsa va xom g’ishtdan foydalanilgan, biroq lumboz asosida devorlar topilmagan. Qadimiy me’morlarning mahalliy rel’ef imkoniyatlaridan to’la foydalanishga intilishi tufayli mudofaa inshootlari takomillashib borgan. Keyingi davrlarda shaharsozlikda keng foydalanilgan to’rt burchakli burjlarning yaratilishiga hamda ilk temir va ayniqsa antik davr shahar va qo’rg’onlarida keng tarqalgan darvoza oldi xonalari va burjlarining Farg’ona vodiysida paydo bo’lishiga asos bo’lgan.

Chust madaniyatida ro’y berayotgan urbanizatsion jarayonlar bir tomondan aholining demografik o’sishi va ularni xo’jalik yuritishining asosini tashkil qiluvchi dehqonchilik hududini kengaytirib borish zarurati bilan bog’liq bo’lgan. Biroq, bu davr aholisi asosan daryolarning qadimgi o’zanlaridagi vohalarda istiqomat qilgan va ularning sug’orma dehqonchilik texnologiyasi imkoniyatlari hali mukammallik darajasi past bo’lgan. Ya’ni, tuproq osti suvlarini olib chiqib ketishi mumkin bo’lgan zaxkash va zakanlar kashf etilmagan. Shu sababli, dastlab xosildor bo’lgan yerlar uzog’i bilan 50-100 yil mobaynida sho’rlashib borgan. Bu hol esa, Chust madaniyati sohiblarini o’zlashtirilgan joylarini tashlab, daryo (Qoradaryo, Norin, Sirdaryo) bo’ylarida yangi xosildor yerlarni izlashga majbur etgan. Ma’lumki, Chust madaniyati yodgorliklari Farg’ona vodiysining shimoli-g’arbidan janubi-sharqigacha uzunligi 230 km keladigan enli hududda joylashgan bo’lib, unda 15 ta gurux vohalari o’zlarining markaziy shaharlari bilan mavjud bo’lganligi aniqlangan [59: 120].

Vaholanki, ohirgi 30 yil mobaynida olib borilgan tadqiqotlarga ko’ra, mintaqaning sharqida joylashgan Dalvarzin shahridan, uning shimoli-g’arbida aniqlangan Chust (kichik shaharcha harobasi) manzilgohini shakllanishi davriy jixatdan yoshroq. Bizni fikrimizcha, bu hol Chust madaniyatining mintaqa bo’yicha tarqalishini bir vaqtdagi ko’lamidan ko’ra, ularning bosqichma-bosqich daryo bo’ylab sharqdan shimoli-g’arb tomonga ko’chib borganliklaridan darak beradi.

Urbanizatsion jarayonlarda Chust madaniyatiga oid o’rtacha va kichik manzilgohlar eng ko’p aniqlangan ob’ektlar qatoriga kiradi. Bizning fikrimizcha, bu voqelikning asosiy sabablaridan biri bevosita sun’iy sug’orishga asoslangan dehqonchilikni mukammallashmaganligi bilan bog’liq. Zero, ko’plab insonlarni mehnat va katta iqtisodiy sarmoya evaziga quriladigan yirik va o’rtacha shaharlar ko’pi bilan 50-100 yildan so’ng tashlab ketilishi hamda yana yangi yerlarga ko’chib o’tish ilk

ziroatkolarga bir qator qiyinchiliklar tug'dirgani ehtimoldan holi emas. Shu tufayli, Chust madaniyati sohiblari alohida urug'lar kuchi bilan bitadigan (0,02-0,5 ga) manzilgohlar qurilishi udum bo'la boshlagan.

Chust madaniyatining Dalvarzindek markaziy shahridagi "arkini" rejasi bevosita shu madaniyatga oid ko'plab manzilgohlar qurilishi uchun andoza vazifasini o'tagan. Garchi, bu shahar arkini kelib chiqishi xaqida ayrim maqolalarimizda [2: 28; 3: 64-65; 4: 3] keltirgan bo'lsakda, manzilgohlar rejasini shakllanishini tushunish uchun ushbu jarayon haqida qisqacha to'xtalib o'tish lozim.

O'z vaqtida Yu.A.Zadneprovskiy Dalvarzin shahrini shu davrga oid ko'chmanchi va ziroatchi xalqlari shaharlari bilan qiyoslagan. Biroq, O'rta Osiyoning ziroatchilari manzilgohlarida arki bo'lgan bulsada, manzilgohlarning o'zi mudofaa devorlari bilan o'ralmagan; ko'chmanchilarning istehkomli manzilgohlari esa maydoni jihatidan faqatgina Dalvarzin arkiga teng yoki bir oz kattaroq bo'lgan [62: 23]. Shunga qaramay, Chust madaniyati namoyondalarining ko'chmanchilar bilan umumiy kelib chiqishi va qon-qardoshlik aloqalarini saqlab qolganligi tufayli, ularni me'morchiligida ishlatilgan qurilish materiallari va Dalvarzin arki tasnifi (2 ga maydon atrofi ketma-ket va o'zaro tutash xonalar bilan aylana shaklida qurib chiqilgan) ko'proq ko'chmanchilarning qurilish an'alariga yaqin bo'lganligini [20: 48; 48: 166-168; 36: 100-106; 25 116]. Yevrosiyo va Yakin Sharq ko'chmanchi madaniyatlarining barchasida o'troq xayot tarziga o'tish davrida Dalvarzin arki qurilishidagi jarayonlarni kuzatish mumkin – ular ham dastlab 2-3 ga maydon aylanasiga ichiga 25-30 ta uyni qo'rg'on shaklida qurgan [65: 131-132]. Bu kabi aylana shaklidagi qo'rg'onlar G'arbiy Sibir uchun mil. avv. II ming yillikdan ma'lum [42: 29-47; 26: 123-125], biroq bu manzilgohlarda 12-17 xonadan tashkil topgan.

Bu davr manzilrohlari bo'yicha Andijon suv ombori to'g'onidan 16 km yuqoridagi Qirgiziston hududining Yassi daryosining chap qirg'og'ida joylashgan Bo'ztepa yodgorligini misol qilib keltirib o'tish mumkin [11: 357-358; 63: 86]. Tepalik aniq ikkita qurilish gorizontiga bo'lingan – I va II, ularning asosiysi II (yuqori) gorizont. Bizni qiziqtirgan II qurilish gorizontida manzilgoh qoldiqlari mavjud bo'lib, u Dalvarzin arkining aylana tasnifidan farqli bo'lib, deyarli kvadrat shaklidagi rejaga bo'ysunib, burchaklari aylanasimon va dunyo taraflariga yo'naltirilgan. Majmua yo'laklar bilan o'zaro bog'langan 23 xonadan iborat edi. Ba'zi xonalar o'zaro anfilada uslubida ulangan – ya'ni bir biriga umumiy eshiklar vositasida o'tish mumkin bo'lgan. Bir guruh xonalar to'rtburchak shaklidagi inshootni tashqi devorlarining perimetri bo'ylab joylashgan bo'lsa, boshqalari esa markaziy xonalar guruhiga kiritilgan. Manzilgohning tashqi kichik hovlisiga, Dalvarzin arkidagidek, bitta chiqish joyi bo'lgan.

Umuman olganda, Chust madaniyatining manzilgoh xonalarini rejasi markaziy shahar deb atlmish Dalvarzin arkidagi xonalar joylashuvini eslatadi. Farqi shundaki, agarda markaziy shahar arki tasnifi aylana bo'lsa, manzilgohlarniki esa to'rtburchak bo'lgan. Shuningdek, birinchisi (ark)da xonalar markaziy xovli atrofida o'zaro bir biri bilan bog'liq 1-3 qator xonalar vositasida o'ralib turgan bo'lsa, ikkinchisi (manzilgoh)da xonalar uning perimetri bo'yicha joylashib markazdagi xonalar guruxini o'rab turgan. Dalvarzinni aylana arkidan Bo'ztepa manzilgohining to'rtburchak rejasiga o'tishi, Yevroosiyo dashtlaridagi kabi bronza davridan ilk temir davriga o'ziga xos tadrijiy taraqqiyot yo'nalishiga mos tushadi [2: 29]. Chust madaniyati taraqqiyoti jarayonida shakllangan manzilgohlarning to'rtburchak tasnifi undan keyingi ziroatkor Sho'raboshot madaniyatining asosiy me'moriy mezonlariga kiritilganligi bir qator dala tadqiqotlarida o'z tasdig'ini topmoqda.

II. ILK TEMIR DAVRI IKKINCHI BOSQICI (MIL.AVV. V-IV ASRLAR) SHAHARSOZLIGI

Oxirgi o'n yillik tadqiqotlarimizga ko'ra, Farg'ona vodiysi shaharsozligining bu bosqichi Eylaton va Sho'raboshot madaniyatlari yodgorliklari bilan belgilanadi. Zero, bizning fikrimizcha, birinchisi ko'chmanchi Qayroqqum madaniyati bilan irsiy bog'liqlikka ega bo'lsa, ikkinchisi, aksariyat ziroatchilik va hunarmandchilik mahsulotlarining o'xshashligi tufayli, Chust madaniyatining davomchisi sanaladi. Shuningdek, yuqorida keltirilgan madaniyatlarni oldingi tadqiqotchilar tomonidan, ma'lum subyektiv va obyektiv sabablarga ko'ra, nomutanosib ravishda davrlanishi qisman bizni tadqiqotlarda asoslab berilgan hamda, bizning fikrimizcha, bu madaniyatlar bir davrda va o'zaro ta'sir doirasida faoliyat ko'rsatganlar [10: 114-130; 9: 3-11].

Bu davrda ko'chmanchi va ziroatkor madaniyati sohiblarining urbanizatsion (shahar va manzilgohlar bunyod etish) taraqqiyotida yangi sifat bosqichi shakllanadi va keyingi antik davri

TARIX

me'morchiligi uchun deyarli barcha asosiy qurish me'zonlari va konstruktiv elementlari kashf qilinib bo'ladi. Chust madaniyatida ta'mal toshi qo'yilgan shaharsozlik meyorlari ilk temir davri ohiri va antik davrda o'z kamolotini topadi.

Ilk temir davrining ikkinchi yarmi Eylaton va Sho'raboshot madaniyatlari orasidagi aloqalar hamda o'zaro madaniy ta'sir ushbu madaniyatlar qorishuvi (sintezi)ga olib kelgan. Ma'lum sabablarga ko'ra, bu ko'chmanchi va o'troq madaniyatlar sintezi natijasida ilk markazlashgan Farg'ona (Davan) davlatchiligi barpo bo'lib, undagi boshqaruv ko'chmanchilar qo'lida bo'lgan [61: 22; 19 102; 10: 127-128]. Aynan markazlashgan davlatchilik rahnomaligida olib borilgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari – Shahrixonsoy va Andijonsoy kabi sun'iy sug'orish inshootlarining qurilishi mintaqadagi urbanizatsiya jarayonlarini ham jadallashtirgan.

II. 1. EYLATON MADANIYATIDA YUZ BERGAN URBANIZATSIYA JARAYONLARI

Garchi vodiyni boshqa joylaridagi 20 dan ortiq antik va o'rta asrlar yodgorliklarining quyi qatlamlarida Eylaton madaniyatiga oid sopol na'munalari aniqlangan bo'lsada, xususan, Eylaton shahridan boshqa bu madaniyatga doir to'laqonli ma'lumot beruvchi shahar yoki manzilgoh qoldiqlari topilmagan. Biz, keng ko'lamli adabiyotlarni tanqidiy-solishtirma tahlillarini o'z ichiga olgan, tadqiqotlarimizda Eylaton shahrini bu davr ko'chmanchilariga tegishli ekanligini yoqlaymiz [9: 3-11]. Vaholanki, bu haqida dastlabki fikr XX asrning 60-yillari ayrim tadqiqotchilar tomonidan ilmiy asoslab berilgan [29: 92, 94; 31: 53, 54].

Bizning tadqiqotlarga ko'ra, aynan ko'chmanchi madaniyatlarga taaluqli bo'lganliklari tufayli [10: 125-126; 9: 7-8], ularning markaziy shahri Eylaton ham, ko'pchilik tadqiqotchilarning takidlashiga ko'ra, bu madaniyat tarixining ikkinchi yarmida bunyod etilgan [39: 194; 21: 83; 23: 3; 27: 3; 28: 40-41]. Albatta, bu tarzda ko'chmanchi madaniyatda markaziy shaharning bunyod etilishi, vodiya chorvani ekstensiv rivojlantirish imkoniyatlarining chegaralanishi hamda unga qarama qarshi ravishda aholining demografik o'sishi va natijada aholi orasida qashshoqlashib borayotgan aholi toifalarning ortib borishi asosiy sabablardan bo'lgan.

Shuni ham takidlash lozimki, Eylaton shahri qurilguncha va undan keyin ham vodiya, Qayroqqum madaniyatidagidek, daryo va soy bo'ylarida temirchi hunarmandlarining manzilgohlari mavjud bo'lganligi ehtimoldan holi emas. Zero, Farg'ona shahridagi Simtepa va Andijondagi Sarvontepa yodgorliklarining quyi qatlamlarida Eylaton madaniyatiga oid topilma (birinchisida) hamda qalin madaniy qatlam (ikkinchisida) aniqlangan. Agarda Simtepa yodgorligining quyi qatlamidagi o'zaro bog'liq uzun xonalarni funksional vazifasi va davri tadqiqotchilar tomonidan mavhum deb topilgan [18: 96] bo'lsa, Sarvontepaning quyi madaniy qatlami uning tadqiqotchisiga Eylaton madaniyatini ikki bosqichiga oid sopol komplekslarini ajratish imkonini bergan [33: 111-117]. Biroq, ushbu yangiliklarda Simtepa va Sarvontepa yodgorliklarining quyi qatlamida ziroatchilik madaniyatiga xos me'zonlar qat'iy belgilanmagan. Bu borada ko'chmanchi va o'troq madaniyatlarga oid shaharlarining farqi yana bir tafsilot bilan ajralib turadi – faqat ziroatchilarda ko'p miqdordagi uy-ro'zg'or o'ralari mavjud bo'lgan [23: 3] bo'lib, Eylatonda aniqlanmagan [55: 30-32; 56: 108-109; 38: 38-45].

Bu madaniyat urbanizatsiyasidagi bir qator jumboqli vaziyatlar bo'lib, ularning yechimi keyingi tadqiqotlar vazifasidir, biroq Eylaton shahrining bunyod etilishi mintaqa ko'chmanchilari tarixida keskin burilish yasadi deb e'tirof qilish lozim. Birinchidan, Eylaton shahri shu paytgacha vodiya mavjud bo'lmagan mahobatli inshoot bo'lib, u har 55-60 m oralig'ida to'rt burchak (10x10 m) burjlar bilan kuchaytirilgan ikki qator mudofaa devorlariga ega bo'lib, tashqi shahar 200 ga va ichki shahar 20 ga maydondagi xududlarni o'rab turgan [55: 31; 38: 38]. Eylaton chust madaniyati shaharlaridan farqli parallelagram shaklida bo'lgan. Shaharning ark qismi bo'lmagan. Ikkinchidan, bu mahobatli inshoot rejali bo'lib, shaharning barcha devorlari bir davrda qad ko'tarilgan. Shu sababli, ilk mudofaa tizimi sifatida shahar devorlarining old tomonidan qurilish jarayonida xandaklar bunyod etilgan. Bu kabi xandaklarni bunyod etilishi, Markaziy Osiyoning boshqa qadimgi shahar va qal'alaridagi singari o'tgan [54: 42; 37: 213-214].

Eylatonda foydalanilgan qurilish texnikasi va materiallari Markaziy Osiyoda me'morchiligida bo'lib o'tgan taraqqiyot tendentsiyalari bilan bir qator o'xshashliklarga ega: qurilishda guvala, xom g'isht (mudofaa devorlari) va paxsadan (uy-joylar) foydalanilgan; mahobatli inshootlar loy qorishmasi va guvaladan qilingan poydevor ustiga qurilgan; g'ishtlar chok bostirib urilgan; inshoot

devorlari ikkita parallel holat urilgan g'ishtli devor (tashqi qismi tekkis, ichki qismi esa tartibsiz) ning oralig'i odatda guvala va xom g'isht parchalarini loyga qorishtirib to'ldirish orqali bunyod etilgan.

Shunday bo'lsada, eylatonliklar shaharlari Chust madaniyatidagilardan hajm va shaklida keskin farqlari bo'lgan: Chust va Eylaton madaniyatlari ikkisida ham to'g'ri to'rt burchakli va tamg'alangan xom g'ishtlardan foydalanilgan. Biroq, birinchisida xom g'ishtlarining hajmlari orasida katta farq bo'lib (Dalvarzinda – 53-55x27-38x8-13 sm, Chustda – 30-60x27-28x5-8 sm), tarkibiga somon qo'shilmagan va qirralari aniq edi. Ulardan farqli, ikkinchisida xom g'ishtlar deyarli bir xil hajmli (40-46x39-40x8-9 sm), tarkibida somon bo'lib, qirralari aniq chiqmagan va shu sababli ular ko'proq ezilgan guvalaga o'xshardi; Chust ilk darvozasining o'ng tomonida bastionsimon inshoot bo'lgan bo'lsa, Eylaton ichki shahrining sharqiy darvozasi ikki tomondan burjlar himoyasida bo'lgan va o'ng burjda darvoza oldi xonasi topilgan.

II. 2. SHO'RABOSHOT MADANIYATI URBANIZATSIYASI

Bu madaniyat bevosita Chust madaniyatining vorisi va davomchisi bo'lganligi nafaqat uzoq davr mobaynida takomillashib borgan qo'lda yasalgan va bo'yoq bilan naqshlangan idishlaridagi ornamentatsiya an'anasida, balki manzilgohlarni bunyod etish mezonlarida sezilib turadi [22: 19; 2 123]. Biroq, yuqorida keltirilganidek, Farg'ona vodiysi qadim madaniyatlarini davrlashtirilishidagi noaniqliklar Sho'raboshot madaniyati davrini mil.avv. V – mil. birinchi asrlar bilan belgilanishiga olib kelgan. Natijada, Chust va Sho'raboshot madaniyatlari orasida ikki asrlik bo'shliq paydo bo'lgan. Vaholanki, G. P. Ivanovning davriy sxemasida ham bu xronologik bo'shliqni mavjudligiga alohida ishora bergan [21: 168, ris. 1]. Albatta, bunday davriy nomuttanosiblik Sho'raboshot madaniyatiga oid yodgorliklarida yangi dala tadqiqotlarini bevosita arxeologik va u bilan kesishgan aniq fanlar natijalarini zamonaviy tahlillar vositasida olib borilishi natijasida hal bo'ladi.

Sho'raboshot madaniyatining shaharsozligi to'g'risida Sho'raboshot, Qoradaryo shaharlari, Qulunchoq va Qo'shtepa-2 mudofaa qo'rg'onlari, hamda Xo'jambog'tepa va Mirzaolimtepa yodgorliklarida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar orqali ko'rish mumkin. Ushbu, arxeologik jixatidan ancha yaxshi o'rganilgan, yodgorliklarda Chust madaniyati urbanizatsiyasi jarayonida shakllangan qurish me'zonlari va elementlarining tadrijiy taraqqiyoti aniqlangan. Yuqorida keltirganimizdek, ilk temir davrida mintaqa shaharlari tasnifi trapetsiya va aylana shaklidan to'rtburchak ko'rinishiga tadrijiy rivojlanib kelgan. Zero, ziroatkor madaniyatlarida shahar va manzilgohlar alohida daryo va soy deltallarida emas, balki ular bo'ylarida shakllanidigan bo'lgan.

Bu borada Sho'raboshot shahri qurilishi misol blishi mumkin. Garchi 70 ga maydonni o'z ichiga olgan bu uch qism (Sh-I, Sh-II, Sh-III)dan iborat shahar Yassi daryosi irmog'ining shimolida joylashgan bo'lib, u faqat uch (g'arb, shimol va sharq) tarafdin mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lsada, uning janubiy qismida mudofaa devori topilmagan. Ya'ni, bu madaniyat sohiblari chustliklar singari tabiiy suv manbalaridan himoya sifatida foydalanishni davom ettirganligini ko'rsatadi. Sho'raboshotning mudofaa tizimidagi burjlar ham Eylaton shahridagidan keskin farq qilib, ular mudofaa devorlari chizig'idan turtib chiqmagan. Bu yodgorlikning tadqiqotchisi keltirgan shahar [56: 288, tabl. XLI] tasnifida burjlar belgilangan, lekin mudofaa devori chizig'ining qalinligi o'zgarmagan. Bunday burjlar Qoradaryo shahri tasnifida ham keltirilgan [56: 316, tabl. XLIX]. Bu hol esa, burjlar devorlardan faqat bir oz balandroq bo'lganligidan darak beradi xolos. Ehtimol, Chust madaniyatining markaziy shahri Dalvarzin devorlari yaxshiroq saqlangan bo'lganida, uning qalin (4-6 m) devorlari ustida ham Sho'raboshot devorlaridagidek burjlar mavjud bo'lganligi ko'rinardi. Shuningdek, Sho'raboshot shahrini deyarli yarim maydonini egallagan Sh-I qismi bo'shliqdan iborat bo'lgan va uning tadqiqotchisining fikriga ko'ra, u yerda urush vaqtida shahar atrofidagi aholi va uy hayvonlari saqlangan va bu uni Eylatonna tashqi shahri bilan yaqinlashtiradi [56: 119]. Biroq bizningcha, bu hol ko'chmanchi (Eylaton) va ziroatkor (Sho'raboshot) madaniyatlari orasida ma'lum nifoq bo'lib, birinchilar ikkinchisiga nisbatan tajovuzkorroq bo'lganidan darak beradi.

Sho'raboshot madaniyati shahar va manzilgohlari odatda to'rt burchak shaklga ega bo'lib, atrofi burjlar bilan kuchaytirilgan monolit mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Ko'pincha shahar qurish uchun joylar ikki-uch tomondan soy, botqoqlik yoki jar ko'rinishidagi tabiiy himoyaga ega bo'lgan. Qolgan joyda esa mudofaa devorlari qurilishi jarayonida ularning old tomonidan sun'iy xandaklar barpo qilingan.

XULOSA

Ilk temir davrining birinchi yarmida Qayroqqum va Chust madaniyatlaridagi urbanizatsion jarayonlar o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Agarda birinchisida ko'chmanchi madaniyat sohiblari kamsarf va yengil turar joylar qurishgan bo'lsa, ikkinchisida o'troq madaniyati uchun turar joylar nisbatan uzoq vaqtga mo'ljallangan bo'lishi bilan birga, ularning joylashuvi nafaqat tabiiy (daryo va soy deltalari) himoyalangan, balki mahobatli mudofaa inshootlari bilan ham ta'minlangan edi. Zero, tezkor suvoriy jangchilarga ega ko'chmanchilar bu davrda statsionar mudofaaga muhtoj bo'lmagan, balki, zarurat tug'ilganda, suvoriylarga tayangan holda oziq-ovqat va hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini ziroatkor mudaniyatiga oid shahar va manzilgohlarga bosqin qilish vositasida qondirganlar. Shu tufayli, Qayroqqum madaniyati urbanizatsiyasida keskin o'zgarish sezilmaydi. Biroq, Chust madaniyatida bu o'zgarishlar o'ziga xos tarzda ajralib turgan.

Chust madaniyati sohiblarining bir maromda taraqqiy etishi uchun nafaqat dehqonchilik va hunarmandchilikni rivojlantirib borish lozim edi, balki ko'chmanchilarning hurujiga qarshi mudofani mutahkamlab borishi zarur bo'lgan. Bu zaruriyat yirik markaziy Dalvarzin shahrining shakllanishiga olib kelgan. Biroq, yerga ishlov berish hali kamolotga yetmaganligi sababli, yirik shaharlardagi hosildor yerlar 50-100 yilga bormay sho'rlashib ketar va aholi ehtiyojini qondirish uchun zarur hosilni olib bo'lmas edi. Shu tufayli, chustliklar yangi hosildor yerlarni izlab bosqichma-bosqich Qoradaryo, Norin va Sirdaryo bo'ylariga ko'chib o'tganlar. Lekin yuqorida keltirilgan sabablarga ko'ra, aksariyat hollarda o'rtacha va kichik manzilgohtar bunyod etish bilan cheklanganlar.

Eylaton shahrining bunyod etilishi mintaqa ko'chmanchilari tarixida keskin burilish yasadi deb e'tirof qilish lozim. Zero, Eylaton shahri shu paytgacha vodiya mavjud bo'lmagan mahobatli inshoot bo'lgan. Garchi, buning asosida ijtimoiy muammo – chorvadorlar orasida qashshoqlashib borayotganlar soni ko'payishi natijasida ularni o'ziga xos "ijtimoiy himoyalash" siyosati olib borilgan bo'lsada. Vaholaki, bunday mahobatli shaharning kelib chiqishi Yevroosiyo ko'chmanchilari an'alariga borib taqaladi. Shunday bo'lsada, Eylaton shahri qurilishi natijasida mintaqaga mahobatli burjlar bilan mustahkamlangan va katta maydonni egallagan shaharlar bunyod etish me'zonlari kirib keldi. Bu mezonlar mukammallashgan holda Mingtepa shahri qurilishida o'z aksini topdi, biroq undagi burjlar kamonchilar shinagi bilan jihozlangan bo'lib, darvoza oldidagi burjlar qolganlariga nisbatan mudofaa devorlari chizig'idan 2-3 barobar ko'proq turtib chiqqan va eng zaif mudofaa xalqasini shu yo'sinda kuchaytirgandi.

Mil. avv. I ming yillikning o'rtalarida keng ko'lamda vodiya olib borilgan irrigatsiya inshootlarini barpo etilishi [13: 154; 60: 192-196; 34: 68] natijasida, har bir yangi irrigatsiya inshootlari bo'ylarida o'nlab manzilgoh va qo'rg'onlar barpo etilgan. Tadqiqotlarimizga ko'ra [7: 45-48; 8: 4-12] kuchli mudofaga ega bo'lgan qal'alar kanallar bo'yida har 2-3 km.da qurilib, ularga shu xududga zarur suv taqsimotini nazorat va mudofa qilish vazifasi yuklatilgan. Albatta, bunday keng ko'lamdagi bunyodkorlik natijasida soylar bo'yida joylashgan bir qator manzilgohtar ular hududidan ichki va tashqi savdo yo'llarining o'tishi, ayrim hollarda esa strategik ahamiyatga ega manzilgohtar yirik mudofalangan qalbalar va o'ziga xos markazlarga aylanishi mumkin bo'lgan.

Ayrim ma'lumotlarda Sho'raboshot madaniyatiga oid yodgorliklar 50 dan ortiq deb ko'rsatilgan bo'lsa, ba'zilarida faqatgina Shaxrixonsoy bo'yida 40 ta yodgorlik aniqlangani berilgan. Vaholangki bu kabi suv inshootlari, u qadar katta uzunlikga ega bo'lmasada, bir necha o'nlab qurilganligi aniqlangan [13: 150].

Yuqorida keltirilgan holat oldingi davrlarda faqat daryo va soy deltalaridagina emas, balki ancha keng hududda dehqonchilik bilan shug'ullanish imkonini bergan. Zero, bu inshootlarning uzunligi bir necha 100 m dan 100 km gacha borgan. Bu esa, o'z navbatida, shaharsozlik ko'lamini kengaytirib, aholining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xayotida tub o'zgarishlarni sodir ettirgan. O'z o'rnida esa bu vaziyat eski voha mudofaa tizimlarini yanada murakkablashtirib, ularni o'zaro bog'lanishlarini mustahkamladi. Fikrimizcha, bu davrlarda shaharlar shakllanishi ham aynan voha mudofa tizimlarini takomillashtirish orqali savdo yo'llarining hafsizligini oshirish tufayli ravnaq topgan.

Ahamiyatlisi shundaki, bu davrning deyarli barcha sun'iy sug'orish inshootlari, asosan, Sho'raboshot madaniyatiga oid yodgorliklari joylashgan hududda aniqlangan. Eng asosiy xulosalardan biri shundaki, agar davlatchilikning shakllanishi bevosita keng ko'lamda irrigatsiya

inshootlarini barpo qilish bilan bog'lansa, demak aynan sharqiy qismidan uning g'arbiy sarhadlarigacha urbanizatsiya jarayonlari jadallashib borganligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev B. M. Nekotoriye itogi izucheniya drevney fortifikatsiya Fergani // Istoriya Uzbekistana v arxeologicheskix i pismennix istochnikax. Tashkent: Fan, 2005. S. 131-140.
2. Abdullayev B. M. Qadimgi Farg'ona mudofaa inshootlarida ko'chmanchilar madaniyati izlari // O'rta Osiyoning qadim va o'rta asr shahar madaniyati an'analari. O'zbekiston milliy universitetining 70-yilligiga bag'ishlangan konf. materiallari. Toshkent: Yangi nashr, 4-5 noyabr 2010a. B. 27-32.
3. Abdullayev B. M. Ob elementax kochevoy kulturi v fortifikatsionnix soorujeniyax Fergani // Sivilizatsii i kulturi Sentralnoy Azii v yedinstve i mnogoobrazii. Tashkent-Samarkand, 2010b. S. 61-67.
4. Abdullaev B. M. Archaic fortification of the Fergana // International workshop on Eurasian archaeology. General information. Xi'an, Chine, 2010. 09. 17-26 September. 2010c. P. 3-4.
5. Abdullayev B. M. Drevneyshaya fortifikatsiya Fergani v svete novix issledovaniy v Sintszyane (pozdnaya bronza i rannejelezniy vek) // IMKU. Tashkent, 2012. № 37. S. 45-52.
6. Abdullayev B. M. Qadimgi Farg'ona urbanizatsiyasining ayrim xususiyatlari // O'zbekiston arxeologiyasi. Samarqand: O'R FA Arxeologiya instituti, 2016a. № 2. B. 13-22.
7. Abdullayev B.M. Nekotoriye itogi raskopok 2014-2015 gg. na pamyatnike Koshtepa-2 // Arxeologiya Uzbekistana. Pod red. T. Sh. Shirinova. Samarkand, 2016b. № 1. S. 45-48.
8. Abdullayev B. M. Nekotoriye itogi issledovaniy na poselenii Koshtepa-2 // TD. Mejdunar. nauch. konf. "Aspekti Sogdiyskoy kulturi". Sankt-Peterburg, 2016c. S. 4-12.
9. Abdullaev B. M. Eylaton madaniyati // The history of the Fergana valley in new researches. www. research-support-center.com, 2021a. B. 3-11.
10. Abdullayev B.M. Sho'raboshot va Eylaton madaniyatlarining o'zaro aloqalari hamda ularning Farg'ona vodiysida davlatchilik shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga ta'siri // «Markaziy Osiyoda qadimgi tosh va ilk metal davrlari moddiy va ma'naviy madaniyatlari kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari (1,5 mln. yillardan – eramizning IV-V asrlarigacha)» mavzuidagi bo'limning yillik xisoboti. Samarqand, 2021b. B. 114-130.
11. Abetokov A. K., Gavryushenko P. P., Zurova Ye. Z., Kojemyako P. P., Kojomberdiyev I. K. Arxeologicheskkiye raboti v Kirgizii // AO – 1967 Moskva: Akademii nauk SSSR, 1968. S. 356-360.
12. Askarov A., Albaum L. I. Poseleniye Kuchuktepa. Tashkent: Fan, 1979. 112 s.
13. Berenaliyev O. B. Sledi drevney irrigatsii Kirgizii // Stranitsy istorii i materialnoy kulturi Kirgizstana. Frunze: AN Kirg. SSR, 1975. S. 148-167.
14. Bernshtam A. N. Saki Pamira // VDI. Moskva: Akademii nauk SSSR, 1956. № 1. S. 121-134.
15. Debain-Francfort C., Idrisse A. Keriya, mémoires d'un fleuve. Paris, 2005. 245 p.
16. Gamburg V. 3., Gorbunova N. G. Ak-Tamskiy mogilnik // KSIMK. Vip. 69. Moskva: Akademii nauk SSSR, 1957. S. 78-90.
17. Gavrushenko P. P. Kulunchakskoye ukreplennoye poseleniye // Avtoreferat. ... kand. ist. nauk. Tashkent, 1970. 27 s.
18. Gorbunova N. G., Kozenkova V. I. Sim-Tepe – poseleniye v Fergane // ASGE. Vip. 16. Leningrad: Avrora, 1974. S. 95-104.
19. Gorbunova N. G. Nekotoriye osobennosti formirovaniya drevnix kultur Fergani // ASGE. Vip. 25. Leningrad: Gos. Ermitaj, 1984. S. 99-107.
20. Gurevich L. L. O kruglix gorodax drevnix irantsev // Zoni i etapi urbanizatsii. Tezisi dokl. regionalnoy konferentsii. Namangan, 1989. S. 47-49.
21. Ivanov G. P. Arxeologicheskkiye kulturi Fergani (periodizatsiya i sinxronizatsiya) // Diss. ... kand. ist. nauk. Samarkand, 1999a. 188 s.
22. Ivanov G. P. Arxeologicheskkiye kulturi Fergani (periodizatsiya i sinxronizatsiya) // Avtoreferat. ... kand. ist. nauk. Samarkand, 1999b. 23 s.
23. Ivanov G. P. Rannaya gosudarstvennost na territorii drevney Fergani / <https://uz.denometr.com/docs/768/index-280993-1.html> 2013. 4 s.
24. Kabanov S. K. Stratigraficheskii raskop v severnoy chasti gorodisha Afrasiab // Afrasiab. Vip. II. Tashkent: Fan, 1973. S.16-84.
25. Kizlasov L.R. Gorodskaya sivilizatsiya Seredinnoy i Severnoy Azii. Moskva: Nauka, 2006. 360 s.
26. Kovaleva V.T. Tashkovskaya kultura rannego bronzovogo veka Nijnego Pritobolya // Materialnaya kultura drevnego naseleniya Urala i Sibiri. Sverdlovsk, 1988. S. 29-47.
27. Kudratov S. S. Poseleniye levoberejya r. Narin v Fergane // AKD. Sankt-Peterburg, 1992. 23 s.
28. Kudratov S.S. Farg'ona tarixida Eylaton madaniyati // Farg'ona tarixining vodisi tarixining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy nazariy anjumani materiallari. Farg'ona, 2000. B. 39-41.
29. Litvinskiy B. A., Okladnikov A. P., Ranov V. A. Drevnosti Kayrak-Kumov. Dushanbe: Akademii nauk Tadj SSR, 1962. 405 s.
30. Litvinskiy B. A. Orujiye naseleniya Pamira i Fergani v saks koye vreme // MRT. Vip. 1. Dushanbe, 1968. S. 69-115.
31. Litvinskiy B. A. Problemi etnicheskoy istopii drevney i rannesrednevekovoy Fergani // Istoriya i kultura narodov Sredney Azii (drevnost i sredniye veka). Moskva: Nauka, 1976. S. 49-65.
32. Masson V. M. Drevnezemledelchesnaya kultura Margiani // MIA. Moskva-Leningrad: Akademii nauk SSSR, 1959. № 73. 216 s.

TARIX

33. Matbabayev B. X. Noviy arxeologicheskiy kompleks Eylatanskoj kulturi Fergani // Sivilizatsii skotovodov i zemledeltsev Sentralnoj Azii. Samarkand: MITSAI, 2005. S. 111-122.
34. Matbabayev B. X., Mashrabov Z. Z. Drevniy i srednevekoviy Andijan. Tashkent: Sharq, 2011. 254 s.
35. Matbabayev B. X., Pardayev M. X., Abdullayev B. M. Novoye ob oboronitel'nyx stenax gorodisha Dalverzin // Istoriya Uzbekistana v arxeologicheskix i pismennix istochnikax. Tashkent: Fan, 2005. S. 59-68.
36. Milyutina T.E., Zdanovich G.B. Kuysak – ukreplennoye poseleniye protogorodskoy sivilizatsii Yujnogo Zauralya // Rossiya i Vostok: problemi vzaimodeystviya. Ch. V, kn. 1. Kultura drevnix narodov stepnoy Yevrazii i fenomen protogorodskoy sivilizatsii Yujnogo Urala. Chelyabinsk, 1995. S. 100-106.
37. Nilsen V.A. Stanovleniye feodalnoy arxitekturi Sredney Azii V-VIII vv. Tashkent: Fan, 1966. S. 213-214.
38. Obolduyeva T. G. Raskopki 1960 goda na gorodishe Eylatan // KSIA. Vip. 91. Moskva: Akademii nauk SSSR, 1962. S. 38-47.
39. Obolduyeva T. G. O datirovke sten Eylatana // SA. Moskva: Nauka, 1981. № 4. S. 186-195.
40. Pumpelly R. Explorationsin Turkhestan. Washington, D. C.: Published by the Carnegie Institution of Washington. April, 1905. Publication № 26. 324 p.
41. Raxmanov Z., Xomidjonova M. Qadimgi Farg'onaning madaniyatlarini davrlashtirish borasida ayrim fikr-mulohazalar // FarDU ilmiy xabarlar. Farg'ona, 2018. № 6. B. 69-73.
42. Rijkova O.V., Pridochenko I.A. Poseleniye Andreyevskoye ozero XIII – Noviy pamyatnik tashkovskoy kulturi // Arxeologicheskiye otkritiya Urala i Povoljya. Yoshkar-Ola, 1994. S. 123-125.
43. Sagdullayev A. S. Zаметki o rannem jeleznom veke Sredney Azii // SA. Moskva: Nauka, 1982. № 2. S. 229-234.
44. Saltovskaya Ye. D. Nekotoriye Noviyе materialy o «ferganskix kochevnikax» // USA. Vip. 3. Leningrad: Nauka, 1975. S. 36-39.
45. Sarianidi V. I. Drevniye zemledeltsi Afganistana. Moskva: Nauka, 1977. 172 s.
46. Srednyaya Aziya v epoxu kamnya i bronzi. (Otv. redaktor: Massov V. M.). Moskva-Leningrad: Nauka, 1966. 290 s.
47. Sprishevskiy V. I. Oboronitelnoye sooruzeniye epoxi bronzi na territorii Uzbekistana // SA. Moskva: Nauka, 1972. № 3. S. 227-232.
48. Steblin-Kaminskiy I.M. Ariysko-Uralskiye svyazi mifa ob Yime // Rossiya i Vostok: problemi vzaimodeystviya. Ch. V, kn. 1. Kultura drevnix narodov stepnoy Yevrazii i fenomen protogorodskoy sivilizatsii Yujnogo Urala. Chelyabinsk, 1995. S. 166-168.
49. Terenokhin A. I. Sogd i Chach // KSIIIMK. Vip. XXXIII. Moskva-Leningrad: Akademii nauk SSSR, 1950. S. 152-169.
50. Tolstov S. P. Raboti Xorezmskoj arxeologo-topograficheskoy ekspeditsii // AN SSSR v 1949-1953 gg. TXE. T. II. Moskva-Leningrad: Akademii nauk SSSR, 1958. S. 8-258.
51. Vaynberg V. I. Pamyatnik rannego jeleznoogo veka v Severnoy Turkmenii // Kayrakkumskiyе drevnosti. 1977. Vip. V. S. 25-45.
52. Vishnevskaya O. A. Kultura saksix plemen nizovyev Sirdaryi v VII-V vv. // Tr. XAEE. VIII. Moskva: «Nauka», 1973. 160 s.
53. Vorobyeva M. G. Dingildje. Usadba I tisyacheletiya do n.e. v drevnem Xorezme // TXE. 1973. Vip. 9. Moskva: Nauka, 1973. 217 s.
54. Voronina V.L. Iz istorii sredneaziatskoj fortifikatsii // SA. Moskva: Akademii nauk SSSR, 1964. № 2. S. 40-54.
55. Zadneprovskiy Yu. A. Gorodiще Eylatan // SA. Moskva: Akademii nauk SSSR, 1960. № 3. S. 29-45.
56. Zadneprovskiy Yu. A. Drevnezemledelcheskaya kultura Fergani // MIA. 118. Moskva: Akademii nauk SSSR, 1962. 328 s.
57. Zadneprovskiy Yu. A. Tsitadel Dalverzina // AO – 1970 Moskva: Akademii nauk SSSR, 1971. S. 400-402.
58. Zadneprovskiy Yu. A. Chustskaya kultura Fergani i pamyatniki rannejeleznogo veka Sredney Azii // Avtoref. dokt. dis. Leningrad: LOIA AN SSSR, 1978. 52 s.
59. Zadneprovskiy Yu. A. Osnovniye zemledelcheskiye oblasti Sredney Azii v epoxu rannego jeleza // Priroda i chelovek. Moskva: Nauka, 1988. S. 120-133.
60. Zadneprovskiy Yu.A. Dinamika razvitiya osedlozemledelcheskoj kulturi Fergani // Aralskiy krizis (istoriko-geograficheskaya retrospektiva). Moskva: Akademii nauk, 1991. S. 185-197.
61. Zadneprovskiy Yu. A. Sporniye voprosi istorii kulturi drevney Fergani // KSIA. Vip. 199. Moskva: Nauka, 1993. S. 17-23.
62. Zadneprovskiy Yu.A. Razvitiye fortifikatsii v Fergane (I tis. do n.e. - ser. 1 tis. n.e.) // Fortifikatsiya v drevnosti i v srednevekov'ye. Sankt-Peterburg: Otdeleniye istorii RAN, 1995. S. 21-23.
63. Zadneprovskiy Yu.A. Oshskoye poseleniye. K istorii Fergani v epoxu pozdney bronzi. Bishkek: Muras, 1997. 172 s.
64. Zdanovich G. Arkaim — kulturniy kompleks epoxi sredney bronzi Yujnogo Zauralya // RA. Moskva: Nauka, 1997. № 2.
65. Ze'ev H. The Beer-Sheba Valley // From nomadism to monarchy. Jerusalem, 1992. R. 125-237.